

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARNING HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA HUQUQIY TA’LIM VA TARBIYANING O‘RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10431304>

Fayzullayev Ilxom Shukurullayevich

Ijtimoiy-manaviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning asosiy shakllari, huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy ta’lim, huquqiy targ‘ibot va huquqiy amaliyotning o‘rni masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy ta’lim, huquqiy targ‘ibot, huquqiy amaliyot.

Ma’lumki, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida demokratik islohotlarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, jamiyat ahlida, ayniqsa yoshlarda yuksak huquqiy ongi va madaniyat tamoyillariga hurmat munosabatini shakllantirish borasida chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish belgilab qo‘yildi. Ya’ni, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning muvaffaqiyati yoshlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bunda huquqiy ta’lim va tarbiyaning o‘rni beqiyosdir.

Hozirgi paytda huquqiy ta’lim va tarbiya mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, qonuniylikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlarining ijrosini ta’minlash huquqiy ta’lim va tarbiya sifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu masalaning o‘ta muhimligini ta’kidlab: **“Biz huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, har tomonlama bilimli, yuqori malakali, xalqaro standartlarga javob beradigan, o‘z kasbining haqiqiy fidoyisi bo‘lgan huquqshunos kadrlar tayyorlash ishlarini**

takomillashtirishimiz kerak¹⁹¹, deb uni davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi.

Shaxs huquqiy ongi va madaniyati eng avvalo huquqiy ta‘lim va tarbiya ta‘sirida shakllanadi. Huquqiy tarbiya yoshlarimizning huquqiy savodxonligining oshishiga, huquqiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga, huquqqa bo‘lgan hurmat hissining mustahkamlanishi hamda huquqiy ong va madaniyat darajasining yuksalishiga yordam beradi. Birinchi Prezident Islom Karimov: **“Aholining huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonlarini yaratib berish - huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo‘nalishdir”**¹⁹², deb bejizga ta‘kidlamagan edi. Aholi keng qatlamiga chuqur huquqiy bilimlar berish bilan birga huquqiy ta‘lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, shu yo‘l bilan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatning yuksalishiga erishish, boshqacha aytganda, tom ma‘nodagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish oq bilan qorani, yaxshilik bilan yomonlikni, o‘g‘irlik bilan to‘g‘rilikni, bunyodkorlik bilan buzg‘unchilikni, halollik bilan nopoklikni farqlaydigan, jamiyat, davlat, xalq va millat manfaatlariga katta zarar keltiradigan mahalliychilik, qarindosh-urug‘chilik, oshna-og‘aynichilik, mansab vazifalarini suiiste‘mol qilish, korrupsiya va poraxo‘rlik kabi odil huquqiy qarashlar va qonun-qoidalar hamda odob-axloqqa zid xatti-harakatlarga, salbiy hodisalarga murosasiz bo‘lgan kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy tarbiya masalasi ko‘pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining obykti sifatida xizmat qilgan va xizmat qilmoqda. Huquqiy tarbiya – murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lganligi uchun ham, unga xilma-xil ta‘riflar, izohlar berib kelingan. Taniqli huquqshunos olimlar A.X. Saidov va U.T. Tadjixanovlar «Huquqiy tarbiya – shaxslar va ijtimoiy guruhlarining huquqiy ongiga ko‘rsatiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan va maxsus huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta‘sir jarayonidir»¹⁹³, deb ta‘rif berishgan. Huquqshunos olim I.T. Tulteev huquqiy tarbiyaning tor va keng ma‘nolarda qo‘llanilishini inobatga olgan holda «Huquqiy tarbiya – davlat organlari, nodavlat organlari, mansabdor shaxslar va alohida shaxslar guruhining aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maxsus faoliyati hisoblanadi.»¹⁹⁴, deb qayd qiladi.

¹⁹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T; 2018. – B. 40.

¹⁹² Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T. 5. – T; 1997. – B. 146.

¹⁹³ Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Davlat va huquq nazariyasi. 2 – jild. – T., 2001. – 187-b.

¹⁹⁴ Davlat va huquq nazariyasi, X.T. Odilqoriev tahriri asosida. – T., 2011. – 228-b.

Davlat va huquq nazariyasi darsliklarida ham huquqiy tarbiyaga keng ta'rif berilgan. Chunonchi, «Huquqiy tarbiya fuqarolarning ongi va ruhiyatiga ta'sir qilishga qaratilgan, huquqiy tarbiya shakllari, vositalari va uslublaridan foydalanib, fuqarolar ongida chuqur va barqaror huquqiy bilimlar, e'tiqodlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, qonunga mos fe'l-atvor, odatlarni shakllantirish jarayonidir»¹⁹⁵, deyiladi. Bizning fikrimizcha, huquqiy tarbiya – fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda ularning ongi va xatti-harakatlariga maxsus ta'sir etish orqali barqaror qonunga itoatkorlik xulqini shakllantirish maqsadida jamoatchilik va davlat organlarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Insonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda talab darajasida rivojlantirish uzoq davom etadigan serqirra va mashaqqatli faoliyat bo'lib, ularni bolalik davrlaridan boshlab, to umrining oxirigacha huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshirib boriladi. Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati, avvalo oila va mahallada shakllanadi, ta'lim jarayonida mustahkamlanadi, mustaqil hayotga qadam qo'ygani sayin esa yanada takomillashadi. Binobarin, shaxsning huquqiy ongi va madaniyati shakllanishi hamda rivojlanishida: tor ma'noda oilaning, mahallaning, ta'lim muassasalarining, tom ma'noda esa davlat va jamiyatning tutgan o'rni shak-shubhasiz kattadir!?

Huquqiy tarbiyaning asosiy shakllariga huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va huquqiy amaliyot kiradi. Huquqiy tarbiyaning bu shakllari bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'liqlik hamda ketma-ketlikda amalga oshirilgandagina ijobiy natijalar beradi. Huquqiy savodxonlik bolalarning yoshlik chog'laridayoq oilada ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan axloqiy tarbiya ta'siri natijasida shakllantirib boriladi. Oilada farzandlarimizga oddiy huquqiy atamalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, qanday xatti-harakatlar: yaxshi yoki yomon, agar yomon xatti-harakatlarni amalga oshiradigan bo'lsa, qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, jamiyatda huquqiy normalar nima uchun ishlab chiqiladi, ularda belgilangan qoidalar jamiyat uchun qay darajada muhimligini farzandlari ongiga singdirib borish har bir ota-onaning, oila a'zolarining muhim vazifalaridan bo'lib sanaladi. Avvalo, ota-onalar jamiyatda qabul qilingan huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib olishlari va ularga amal qilishlari lozim. Shundan keyin ular farzandlariga huquqiy savodxonlik borasida to'g'ri yo'nalishlar beroladi hamda huquqiy ong va madaniyatga bo'lgan e'tiqodni shakllantira oladi.

¹⁹⁵ Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. – T., 2001. – 188-b.

Yoshlarimizda huquqiy savodxonlikni oshirishda oilada kitobxonlikni tashkil etish muhim omillaridan hisoblanadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yoshlar va aholining keng qatlamlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga alohida e'tiborni qaratib: «**Kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi**»¹⁹⁶, – deb ta'kidladi. Yoshlarimizda kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ularning kitob bilan oshno bo'lishi, avvalo oiladan boshlanadi. Ayniqsa, ularning ixtiyoriga huquqqa oid adabiyotlarni tavsiya etish orqali huquqiy savodxonlikni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

– *bolaning yoshi hamda qobiliyatiga qarab huquqiy adabiyotlarni to'g'ri tanlash va olib berish;*

– *oilada bolaning huquqiy kitoblarni o'qishi uchun belgilangan vaqt ajratish hamda shart sharoitni yaratib berish;*

– *bolaning o'qishi uchun tanlangan huquqiy adabiyotlar sodda va ravon tilda yozilgan bo'lishi lozim hamda ulardan oila kutubxonasini tashkil etish;*

– *bolalarning huquqiy bilimlarga bo'lgan qiziqishi hamda munosabatlarini faqat oila doirasida emas, balki bog'cha va maktab bilan hamkorlikda uyushtirish. Bunda tarbiyachilar va sinf rahbarlari bolalar bilan doimiy ravishda aloqa o'rnatib, ularning ko'proq qaysi huquqiy yo'nalishdagi bilimlarga qiziqishlari bilan muntazam xabardor bo'lib turish lozim;*

– *oilada bolalar huquqiy savodxonligini oshirishda savol va javob, suhbat, bahs va munozara, muammoli huquqiy holatlarning yechimini topish kabi usullardan keng foydalanish yaxshi samara beradi.*

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda huquqiy ta'limning o'rni beqiyosdir. Huquqiy ta'limning o'ziga xos jihati shundaki, bunda huquqiy bilimlar tartibga solingan, ma'lum bir ketma-ketlikda tizimlashtirilgan, o'zining obyekt va predmetiga ega bo'lgan, aniq tanlab olingan usullar yordamida oilada, uzliksiz ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim muassasalarida, o'rta ta'lim maktablarida, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida ta'lim va tarbiya berish jarayonida yoshlar ongiga singdirib boriladi. Huquqiy ta'lim jarayonida ham ta'lim bosqichlarida huquqqa oid kitoblarni avvalam bor bolalarning yoshi, o'zlashtirish darajasi va qiziqishlariga qarab o'qitilsa ijobiy natijalarga erishiladi.

¹⁹⁶ *Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga kutaramiz. 1-jild. – T. "Ўзбекистон" 2017. – Б. 286.*

Huquqiy targ'ibot va tashviqot bu – davlat organlari qabul qilgan qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlarning mazmun va mohiyatini keng ommaga yetkazish uchun huquqshunos mutaxassislar va jamiyatshunos olimlar tomonidan aniq va maqsadga yo'naltirilgan dastur hamda rejalar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda u qanday auditoriyaga mo'ljallanganligini hisobga olish muhimdir. Bu yerda huquqiy targ'ibotning va tashviqotning obyekti bo'lgan fuqarolarning yoshi, jinsiy, ma'lumotlilik darajasi va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish yaxshi samara beradi. Shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanlar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va muloqotlar o'tkazish, ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish, bosma va elektron ommaviy axborot vositalariga maqolalar va huquqiy-axborot materiallarini joylashtirish orqali sharhlar, risolalar, plakatlar, bukletlar va flayerlar tarqatish, ijtimoiy reklamalar (videolavhalar, infografikalar va boshqalar) hamda targ'ibotning qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa turlari orqali amalga oshirish mumkin.

Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishida huquqiy tarbiyaning muhim shakllaridan biri – bu huquqiy amaliyotda. Huquqiy ta'lim va tarbiya yordamida olingan bilimlar jamiyat huquqiy hayotning mazmunini qanchalik keng va batafsil yoritmasin, shaxs esa o'zi olgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatida to'g'ri qo'llay olmasa, uning oddiy ma'lumotdan farqi bo'lmaydi. Huquqiy amaliyotda nazariy jihatdan olingan bilimlarning amaliyotga qanchalik mos kelishi yoki kelmasligi sinab ko'riladi. Yoshlarning jamoatchilik tartibini saqlashda, demokratik- huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda qonunchilik hamda huquqiy tartibotni mustahkamlash ishlarida bevosita va amaliy jihatdan ishtirok etishlari g'oyat muhimdir. Tajribada huquqiy qoidalarni qo'llash borasidagi amaliy malaka va qobiliyatlarning shakllantirilishi huquqiy tarbiyaning muhim jihati hisoblanadi. Yoshlarda axloqiy xislatlar va estetik qarashlar singari huquqiy ong va madaniyat ham shaxsning turmushi, amaliyoti jarayonida shakllanadi.

Huquqiy tarbiyaning asosiy vazifasi yoshlarni huquqiy barkamollik ruhida yuksalishiga olib keladigan quyidagi xususiyatlar: ya'ni **birinchidan**, yoshlarda huquqqa bo'lgan ichki qiziqish va e'tiqodni yuzaga chiqarish, chunki shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvining dastlabki muhim omillaridan biri ham uning huquqiy bilimlarga bo'lgan xohish hamda istagining mavjudligidadir. Agarda shaxsda huquqiy ijtimoiylashuvga qiziqish va moyillik bo'lmasa, undan keyingi amalga oshiriladigan barcha ishlar o'z samarasini bermaydi. **ikkichidan**, huquqiy ta'limning natijasi sifatida qonunlar va huquqiy normalarning mazmun va

mohiyatini chuqur va mukammal bilishlik hamda ularga amal qilish, **uchinchidan**, qonunga va huquqiy talablarga chuqur hurmatda bo'lishlik, ya'ni huquqni ijobiy ijtimoiy o'zgarishlar va inson manfaatlarini muhofa qiluvchi qadriyat sifatida baholash va unga amal qilish, **to'rtinchidan**, huquqiy voqelik va institutlarni to'g'ri anglash hamda tushunish, **beshtinchidan**, huquqiy ko'rsatmalarga to'liq rioya qilish odatlarini hosil qilish, **oltinchidan**, yuksak ijtimoiy huquqiy faollikni namoyon etish, **yettinchidan**, huquqiy me'yorlar talabiga ixtiyoriy tarzda, ichki e'tiqod amri bilan rioya etish va amalda namoyon qilish, **sakkizinchidan**, har qanday huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, **to'qqizinchidan**, huquqiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish va boshqa shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy tarbiya jarayonlarida uni tashkil qiluvchi elementlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiyaning asosiy elementini uning obyekt va subyekt tashkil qiladi. *Huquqiy tarbiyaning subyekt* alohida shaxs, aholining ma'lum qismi, mansabdor shaxslar, ijtimoiy tashkilotlar, davlat va uning organlaridan iborat bo'ladi. *Huquqiy tarbiyaning obyekt* esa alohida shaxs, aholining ma'lum qismi, yoshlar va boshqa guruhlariga kiruvchi (huquqbuzarlar, tarbiyasi og'ir)lar tashkil qilishi mumkin. Huquqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshishida uning obyekt va subyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir va munosabatlarning sifat va samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda yoshlarga huquqiy bilim berish bilan birga qonun va huquqiy normalarga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga huquqiy ko'rsatmalarga so'zsiz amal qilish zarurligiga ishonchni tarbiyalash, ular ongiga jamiyatda qabul qilingan qonunchilik prinsiplariga nisbatan chuqur hurmatni singdirib borish lozim. Shuningdek, huquqiy tarbiya o'zida yoshlarda huquqqa bo'lgan xulq-atvor, sotsial-huquqiy faollik e'tiqodlari, odatlari va malakalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shuni alohida ta'kidlash jizki, huquqiy tarbiya tarbiyaning axloqiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa shakllari bilan uzviy aloqadorlikda olib borilsagina ijobiy natijalarni beradi. Agar shaxsda davlatga, qonunchilik bilan shug'ullanuvchi organga va boshqa huquq va erkinlikni targ'ib-tashviq qiluvchi boshqa insonlarga hurmat bo'lmasa, shaxsda qonunga nisbatan hurmatni shakllantirib bo'lmaydi. Yuqorida qayd qilinganidek, huquqiy tarbiya oilada, ta'lim bosqichlarida huquq bilan bir qatorda boshqa fanlarni asosan ijtimoiy fanlar tarkibiga kiruvchi falsafa, mantiq, adabiyot, tarix, sotsiologiya kabi fanlarni o'qitish jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, huquqqa oid o'quv seminarlari, davra suhbatlari, qonunga zid xatti-harakatlar sodir etilgan vaqtda

uning oqibatlari nimalarga olib kelishi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki huquqiy tarbiyani faqat darslar, suhbatlar, ma'ruzalar, davra suhbatlari, o'quv seminarlari, huquqiy targ'ibotlar o'tkazish yo'li bilangina amalga oshirib bo'lmaydi. Bu ish tarbiyachilarning o'z tarbiyalanuvchilari hayotiga faol aralashuvini ham taqozo etadi. Bunda yoshlarning huquqiy bilim darajasini aniqlashda, ularning huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonida olgan bilimlarni qay darajada o'zlashtirishgani va undan amaliy faoliyatlarida qanday qo'llay olishlari va shu kabi savollarga sotsiologik so'rovnomalar ayniqsa so'rovnomaning anketa usulidan foydalangan holda o'rganib borish maqsadga muvofiqdir. Anketa so'rovnomalari natijasida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida ta'lim tizimi bosqichlarida, o'qitish jarayonida va undan tashqari vaqtlarda tushuntirish, targ'ibot va tashviqot ishlari orqali bartaraf etib borish lozim.

Bugungi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari kuchaygan, axborot xurujlari avj olayotgan murakkab sharoitda aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda milliy qadriyatlarning o'rni muhimdir. Asrlar davomida milliy qadriyatlarga asoslangan shunday axloqiy normalar mavjudki, ular hech qayerda bitilmagan hamda majburiy ahamiyatga ega bo'lmasa-da, o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q? Yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani amalga oshirishda mana shunday avlodlardan ajdodlarga o'tib kelayotgan, qadriyat sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan milliy qadriyatlarning o'rni va ahamiyatini huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishda yoshlarimiz ongiga singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ta'lim va tarbiya – yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishning zaruriy vositasidir. Zero, hozirda Yangi O'zbekistonni barpo etish bosh maqsadimiz ekan, huquqiy ta'lim va tarbiyaning mukammal zamonaviy tizimini yaratish hamda yoshlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda keng foydalanish bugungi kunda dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T. "O'zbekiston" 2017. – B. 286.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T; 2018. – B. 40.

3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T. 5. – T; 1997. – B. 146.
4. Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Davlat va huquq nazariyasi. 2 – jild. – T., 2001. – 187-b.
5. Davlat va huquq nazariyasi, X.T. Odilqoriev tahriri asosida. – T., 2011. – 228-b.
6. Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. – T., 2001. – 188-b.